

**Avtomobillarga gaz to'ldirish kompressor shoxobchalari uchun  
tabiiy gaz yetkazib berish bo'yicha  
SHARTNOMA**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 20\_\_ y. № \_\_\_\_\_

Keyingi o'rinlarda “Iste'molchi” deb ataluvchi

(iste'molchining nomi)

nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi rahbari \_\_\_\_\_ bir  
tomondan va (keyinchalik “Yetkazib beruvchi” deb ataluvchi)

(gaz ta'minoti tashkilotining nomi)

nomidan ishonchnoma asosida harakat qiluvchi, rahbari \_\_\_\_\_,  
ikkinchi tomondan, ushbu Shartnomani quyidagilar haqida imzoladilar:

**I. SHARTNOMA PRYEDMETI**

1.1. Yetkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gazni (keyinlarda o'rinlarda gaz deb ataladi) mazkur shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmlarda yetkazib berish majburiyatini oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu hajmda ko'rsatilgan gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. Yetkazib beruvchi ushbu shartnomaga muvofiq gaz ta'minoti loyihasi asosida standartlashtirilgan va sertifikatlangan gaz yoqish moslamalari va gazdan foydalanish uchun uskunalari, shuningdek, gaz sarfini hisobga olish priborlari (keyingi o'rinlarda o'lchash moslamalari deb ataladi) mavjud bo'lganda gaz yetkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Yetkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22-sonli qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandini) asosan kelgusi yilda gazga bo'lgan asoslangan ehtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi har yili 15 iyulgacha bo'lgan muddatda yetkazib beruvchiga choraklar bo'yicha (qish davri uchun – oylar bo'yicha) taqsimlanadigan kelgusi yilgi gaz

iste'molning prognoz qilinayotgan hajmi uchun, shu jumladan shaxsiy elektron kabinet orqali, buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchining asoslantirilgan buyurtmanomasiga asosan 20\_\_\_\_ yil uchun yetkazib beriladigan gaz hajmi \_\_\_\_\_ **kub metrni**, narxi \_\_\_\_\_ **ming so'mni** tashkil qilib, belgilangan hajmdagi bosim bilan texnik shartlar asosida, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha aniqlanadi:

**I chorak** \_\_\_\_\_ ming kub.m., yanvar \_\_\_\_\_, fevral \_\_\_\_\_, mart \_\_\_\_\_.  
**II chorak** \_\_\_\_\_ ming kub.m., aprel \_\_\_\_\_, may \_\_\_\_\_, iyun \_\_\_\_\_.  
**III chorak** \_\_\_\_\_ ming kub.m., iyul \_\_\_\_\_, avgust \_\_\_\_\_, sentabr \_\_\_\_\_.  
**IV chorak** \_\_\_\_\_ ming kub.m., oktabr \_\_\_\_\_, noyabr \_\_\_\_\_, dekabr \_\_\_\_\_.

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani takdim etmasa, Yetkazib beruvchi tomonidan tabiiy gaz hajmi choraklar bo'yicha (qish davri uchun — oylar bo'yicha) teng taksimlanadi.

1.6. Yetkazib beruvchi Iste'molchining kelgusi oy uchun kutilayotgan o'zgarish to'g'risidagi arizasini tasdiqlangan resurslar balansi va tabiiy gaz taqsimotiga muvofiq ajratilgan hajmlar darajasida ko'rib chiqishi mumkin.

1.7 Ushbu shartnoma shartlari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvardagi 22–sonli qarori bilan tasdiqlangan Tabiiy gazdan foydalanish Qoidalariga talablariga muvofiq bo'lishi lozim. Taraflar shartnoma shartlariga rioya qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladilar.

## **II. GAZ YETKAZIB BERISH SHARTLARI**

2.1. Gaz ushbu shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar)ga muvofiq yetkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Yetkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4-bandiga asosan har bir oy uchun kunlik (soat) kesimida teng taqsimlangan holda gazni qabul qilib oladi, shuningdek, 4.11-bandiga asosan gazni yetkazish-qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga gazni yetkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgarganligi haqida 3 sutka oldin qayd qilingan xabarnomani mavjud usullar orqali ma'lum qilishi shart.

**Yetkazib beruvchining favqulodda-dispatcherlik xizmati telefon raqami:**

---

**Iste'molchining manzili va telefon raqami:**

---



---

2.4. Yetkazib beruvchi gaz yetkazib berishning qisqartirilishi haqida qayd qilingan xabarnomani mavjud usullar orqali Iste'molchini amalda gaz yetkazib berish qisqartirilishidan **3 kun oldin** xabardor qiladi.

Gaz quvurlarida avariya holatlarida Yetkazib beruvchi Iste'molchini gaz yetkazib berish kamaytirilganligi yoki to'xtatilganligi to'g'risida tezkor xabardor qiladi.

2.5. Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda maishiy iste'molchilarni, idoraviy va munitsipal uy-joy fondini, aholi ehtiyojlarini, shuningdek strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan iste'molchilarni ob-havo sovib ketishi davrida gaz bilan uzluksiz

ta'minlash maqsadida Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarida belgilangan tartibda Iste'molchiga gaz yetkazib berish qisqartirilishi yoki butunlay to'xtatilishi mumkin.

2.6. Iste'molchi o'z tasarrufidagi gaz tarmoqlari va ularga o'rnatilgan uskunalar, gaz taqsimlash punktlari (GTP) va gazdan foydalanish qurilmalari, gaz tarmoqlarining saqlanishi va texnik xizmat ko'rsatilishi, foydalanilishi va ularning yaroqliligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchida gaz iste'moli hajmi o'zgarishi munosabati bilan qo'shimcha gazdan foydalanish qurilmalarining o'rnatilishi, rekonstruksiya yoki ta'mirlanishi lozim bo'lganda Iste'molchi Yetkazib beruvchidan rekonstruksiya qilishning texnik shartlarini olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.8. Iste'molchi yoki Yetkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgargan taqdirda ular darhol bu haqda bir-birlarini xabardor qilishlari lozim.

2.9. Gazni ishlab chiqarish, qayta ishlash, transportirovka qilish, taqsimlash va iste'mol qilishning yagona ajralmas texnologik jarayonini hisobga olgan holda, gazni ishlab chiqaruvchi, transportirovka qiluvchi korxonalarining va Yetkazib beruvchining amaldagi qonunchilik talablariga mos bo'lgan ko'rsatmalari bajarilishi Iste'molchi uchun majburiydir.

2.10. Iste'molchi gaz hisoblash pribori ma'lumotlarini Tabiiy gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (keyingi o'rinlarda TGNHAT deb ataladi)ga onlayn tarzda muntazam uzatilishini ta'minlash choralari ko'radi.

Ma'lumotlarni TGNHATga onlayn tarzda uzatilishida Yetkazib beruvchiga aloqador bo'lgan holatlar bundan mustasno.

### III. YETKAZILGAN GAZNING HISOBINI YURITISH

3.1. Gaz faqat hisobga olingan holda yetkazib beriladi.

3.2. Yetkazib berilgan gaz miqdori har oyda gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi Yetkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishlilik bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

Yetkazib berilgan gaz uchun hisob-kitob standart shartlarga nisbatan gaz hajmini – kub metrlarga keltirgan holda ( $T = 20^0$  S,  $R = 760$  mm simob ustuni shartda) amalga oshiriladi.

Iste'molchi tomonidan gazni tijoriy hisobga olish uchun mo'ljallangan toraytiruvchi qurilmaga ega o'lchov kompleksidan foydalanilgan taqdirda, Yetkazib beruvchi gazni yozgi va qishki mavsumlarda iste'mol qilish hajmidan kelib chiqib, toraytiruvchi uskunalarini o'z vaqtida almashtirilishini va o'lchov kompleksi ishini "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi" talablariga muvofiqlashtirilishini ta'minlashi lozim.

3.3. Gaz sarflanishini hisoblashda quyidagi ko'rsatkichlar inobatga olinadi:

a) manometrlar va termometrlar sozligi, ularning davlat tekshiruvi amal qilishi muddati;

b) gaz taqsimlash shoxobchasi (keyingi o'rinlarda GTSh deb ataladi)ni yurgizish (tartibga solish) muddati, shuningdek, haqiqiy ishchi bosimning GTShni tartibga solish dalolatnomasida qayd etilgan ko'rsatkichlarga muvofiqligi.

Qayd etilgan ko'rsatkichlarga rioya etilmaganda  $R_{\text{ortiqcha}} = 1,0 \text{ kg/sm}^2$  koeffitsiyenti qo'llanadi.

Yetkazib beruvchi Iste'molchi bilan birgalikda hisoblash priboriga, uning sifat laboratoriyasi tomonidan taqdim etiladigan gaz tarkibi bo'yicha tuzatuvchi o'zgartirishlarni 12 soatdan kechiktirmasdan kiritishi kerak. Gaz tarkibi bo'yicha ko'rsatkichlarning o'z vaqtida va haqqoniy kiritilishi uchun javobgarlik Yetkazib beruvchi zimmasida bo'ladi.

Gazning fizik-kimyoviy parametrlari standart sharoitdagi zichlik, azot ( $N_2$ ) va uglerod dioksidi ( $CO_2$ ) Standart toraytiruvchi qurilmalar asosidagi o'lchov komplekslarining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Iste'molchi va Yetkazib beruvchi o'zaro kelishuvga muvofiq ularning vakillari tomonidan gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida hisoblash pribori konfiguratsiyasiga kiritilishni ta'minlaydi. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida yetkazib berilishini ta'minlaydi.

Iste'molchi tomonidan hisoblash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Yetkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan hisoblash pribori va/yoki o'lchov kompleksi TGHNATga ulanishi lozim.

3.4. Gaz sarfini hisoblash pribori hajmini o'lchash diapazoni o'rnatilgan gazdan foydalanish uskunalari quvvatiga muvofiq bo'lishi lozim.

Gazni hisoblash priborining hatoligi hisoblash priborining pasportida belgilangan chegaralar oralig'ida, shuningdek toraytiruvchi qurilma asosida ishlovchi hisoblash komplekslarida esa toraytiruvchi qurilmalar uchun ishlab chiqilgan va tasdiqlangan chegaralar oralig'ida ko'rsatilgan hatolik chegarasiga mos kelishi lozim.

O'lchov kompleksi va o'lchash priborlari ishlashida nostandart holatlar yuzaga kelgan taqdirda gaz hajmi me'yoriy xujjatlarga asosan qayta tiklanadi.

Yetkazib beruvchi tomonidan yetkazib beriladigan gaz hajmining ishonchliligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilishi holatlar aniqlanganda, Yetkazib beruvchi yoki Iste'molchi "O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi" bo'linmalarida o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lchov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz holda bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lsa esa Yetkazib beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

3.5. Quyidagi holatlarda yetkazib berilgan tabiiy gaz uchun plombalanmagan gazdan foydalanish asbob-uskunalarining bir sutkada to'liq quvvat bilan 24 soat ishlashi hisobidan amalga oshiriladi:

gazni hisobga olish priborini davlat qiyoslovidan o'tkazish muddati tugaganda va Iste'molchi davlat qiyoslovini o'tkazishga to'sqinlik qilgan holatda, tegishli hisob-kitob qiyoslov muddati tugagan vaqtdan boshlab u o'tkazilgandan keyin gazni hisobga olish priborini o'rnatishgacha bo'lgan davrga.

Iste'molchi tomonidan quyida ko'rsatilgan qoida buzilishlari sodir etilgan taqdirda, undan iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari narxi (amaldagi tariflar bo'yicha) Yetkazib beruvchining vakolatli xodimi so'nggi ko'rikdan o'tkazish vaqtidan boshlab, gazdan foydalanish uskunasi sutkaning 24 soatida to'liq quvvat bilan ishlashi hisobidan kelib chiqqan holda, biroq mazkur hisob-kitob davri (oy)dan ortiq bo'lmagan muddatga undiriladi:

- a) tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboriga qasddan shikast yetkazish;

b) o‘chirish qurilmalari, gazdan foydalanadigan uskuna yoki tabiiy gaz iste‘molini hisobga olish priborida o‘rnatilgan tamg‘alarni qasddan buzish;

v) tabiiy gaz hisobini yuritmasdan yoki o‘rnatilgan tabiiy gaz iste‘molini hisobga olish priborlaridan foydalanmasdan tabiiy gazni ishlatish, oylik me‘yorlar bo‘yicha aholi maishiy ehtiyojlar uchun tabiiy gaz yetkazib berish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish bundan mustasno;

g) gaz quvurlari yoki GTShlarda, gaz taqsimlash tarmoqlarini texnologik ish rejimini buzishga olib keladigan qurilmalarni o‘rnatish.

Oxirgi ko‘rik yoki oxirgi tashrif – gaz ta‘minoti tashkilotining vakolatli xodimi tomonidan hisoblagichni texnik va metrologik holatini hamda gaz uskunalarini joyiga chiqqan holda ko‘zdan kechirish (tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganida) hisoblanadi.

Xatlovdan o‘tkazish dalolatnomasi mavjud bo‘lmaganda tabiiy gaz iste‘molini hisobga olish priborini davlat qiyoslovidan o‘tkazish uchun yechib olish sanasi oxirgi xatlov o‘tkazilgan kun hisoblanadi.

Iste‘molchilar tomonidan gazlashtirish uchun zarur hujjatlar rasmiylashtirmasdan gaz tarmoqlariga o‘zboshimchalik bilan ulangan taqdirda, ushbu xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslardan ruxsatsiz foydalanilgan gaz hajmlari qiymati Iste‘molchi davlat ro‘yxatidan rasmiy o‘tkazilgan kundan boshlab (tegishli tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda) o‘tgan vaqt mobaynida gazdan foydalanish uskunasi sutkaning 24 soatida to‘liq quvvat bilan ishlashi (yoki standart gazdan foydalanish uskunasi mavjud emasligida quvurning o‘tkazish imkoniyati) hisobidan kelib chiqqan holda, biroq da‘vo muddatidan ortiq bo‘lmagan miqdorda undiriladi.

Shuningdek, tarmoqqa ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada maksimal (to‘liq) quvvat bilan 24 soat ishlashi hisobidan kelib chiqib, iste‘mol qilingan tabiiy gaz hajmlarining qiymati quyidagi hollarda undiriladi:

a) hisobga olishni noto‘g‘ri ko‘rsatish maqsadida hisobga olish priborining konfiguratsiyasi va sozligini o‘zgartirish uchun tabiiy gaz iste‘molini hisobga olish priboriga modem yoki boshqa aloqa vositalarining ruxsatsiz ulangani aniqlanganda – ruxsatsiz aralashilgan kundan boshlab butun vaqt davomida (aralashish holati va sanasini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda), lekin da‘vo muddatidan ko‘p bo‘lmagan davrda;

b) tabiiy gaz iste‘molini hisobga olish priborining xotirasidan iste‘molchining aybi bilan nazorat qilinadigan ma‘lumotlar qisman yoki to‘liq yo‘qotilishiga yo‘l qo‘yilganda – ma‘lumotlar yo‘qotilgan vaqtdan nosozlik aniqlangan vaqtgacha (aralashish holati va sanasini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lganda), vaqtni (davrni) aniqlash imkoni bo‘lmaganda – oxirgi ko‘rik yoki gaz ta‘minoti tashkiloti vakili borib ko‘rgan vaqtdan boshlab, lekin da‘vo muddatidan ko‘p bo‘lmagan davrda;

v) gaz iste‘moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o‘lchov chegarasidan ortiqcha bo‘lganda. Ushbu holatda plombalanmagan gaz jihozlarida foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o‘tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo‘lmaganda esa – gaz ta‘minoti tashkiloti vakili tomonidan oxirgi marta borib ko‘rilgan kunda amalga oshiriladi;

g) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o‘zgartirilganda, pribordan tashqari vizual aniqlab bo‘lmaydigan yashirin yo‘l bilan ulanishlar (gaz quvurlari, baypas liniyalari va boshqalarni yashirincha montaj qilinishi) aniqlanganda – oxirgi xatlovdan o‘tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da‘vo muddatidan ko‘p bo‘lmagan davrda;

d) hisobga olish pribori buzilganda yoki mavjud bo‘lmaganda (iste‘molchi aybi bilan), plombalar uzilganda va vizual aniqlanadigan tabiiy gazning haqiqiy iste‘moli ko‘rsatkichlarini kamaytirish maqsadidagi boshqa qoidabuzarliklarda (jumladan, hisobga

olish priboridan tashqari yoki undan oldin gaz quvurlari va baypas liniyalari ulanganda) – bir hisob-kitob davridan ko‘p bo‘lmagan vaqtda;

e) gazlashtirish hujjatlarini rasmiylashtirmasdan qo‘shimcha gaz qurilmasi o‘rnatish holati aniqlanganda (qo‘shimcha gaz anjomlarini o‘rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo‘yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo‘lganida), -oxirgi xatlov dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin bir hisob-kitob davridan ko‘p bo‘lmagan vaqtda.

Gaz uzib qo‘yilganidan so‘ng o‘zboshimchalik bilan qayta ulanganda, iste‘mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo‘yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to‘liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

Bunda qoidabuzarlik to‘g‘risidagi dalolatnomaga muvofiq amalga oshirilgan qayta hisob-kitob hajmi va summasi qonun buzilishi natijasida keltirilgan zararni hisoblash uchun asos hisoblanadi.

3.6. Hisoblash pribori Iste‘molchining aybi bilan nosoz holga kelganda, yetkazilgan gaz hajmi tamg‘alanmagan gazdan foydalanish uskunasi eng yuqori quvvat bilan ishlab turishiga nisbatan aniqlanadi, biroq mazkur hisob-kitob davri (oy)dan ortiq bo‘lmagan muddatga qo‘llanadi.

Hisoblash pribori Iste‘molchining aybisiz nosoz holga kelganda, hisoblash pribori TGNHATga ulangan bo‘lib, tizimdan arxiv ma‘lumotlar olish imkoni bo‘lganda, hisob-kitob amalga oshirishda ushbu ma‘lumotlardan foydalaniladi.

Hisoblash pribori nosoz holga kelganda, Iste‘molchi 24 soatdan kechiktirmasdan bu haqida Yetkazib beruvchiga xabar berishi, shuningdek, Iste‘molchini va gazdan foydalanuvchi uskunalarini ish jadvalini tuzishi va gazdan foydalanilmaydigan gaz uskunalarini Yetkazib beruvchi Iste‘molchi ishtirokida tamg‘alab qo‘yishi va tegishli dalolatnoma rasmiylashtirishi shart.

3.7. Hisoblash priborlarini o‘rnatish, foydalanish va tekshirish amaldagi me‘yorlar va qoidalarga asosan o‘tkaziladi.

3.8. Gazni hisoblash uchun faqat O‘zbekiston Respublikasi o‘lchov vositalari Davlat reyestriga kiritilgan turdagi priborlardan foydalanish shart.

3.9. Priborlar ularning foydalanish uchun yaroqli ekanligini tasdiqlovchi hujjat, ishlab chiqaruvchi korxonadan tomonidan belgilangan joylarda tegishli shakldagi amal qiluvchi belgilar va tamg‘alarga ega bo‘lishi shart.

3.10. Hisoblash priborlarining texnik holati, ta‘mirlanishi va o‘z vaqtida davlat qiyoslovidan o‘tkazilishi uchun javobgarlik hisoblash pribori egasi zimmasiga yuklatiladi.

3.11. Gaz iste‘molini hisobga olish priborlarini davlat qiyoslovidan o‘tkazish metrologiya xizmati organlari tomonidan qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

3.12. Hisoblash priborlarini qiyoslov davriyligi me‘yoriy-texnik hujjatlar asosida belgilanadi.

3.13. Hisoblash priboriga tamg‘a o‘rnatish Yetkazib beruvchi vakillari bilan birga dalolatnoma tuzgan holda Iste‘molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

3.14. Hisoblash priborlarining, shu jumladan o‘rnatilgan tamg‘alarning saqlanishi va butunligi uchun javobgarlik Iste‘molchiga yuklatiladi.

3.15. Hisoblash pribori o‘rnatilgandan so‘ng Yetkazib beruvchi tomonidan ro‘yxatga olinadi.

3.16 Gaz iste'molini hisobga olish priborlarini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, davlat qiyoslovidan o'tkazish va sozligini monitoring qilish uchun yechib olish Yetkazib beruvchi vakillari tomonidan Iste'molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

Bunday holatda hisobga olish pribori o'rniga tekshirilgan boshqa hisobga olish priborini hisoblagich egasi hisobidan Yetkazib beruvchi va Iste'molchi ishtirokida o'rnatiladi.

3.17. Hisoblash priborini davlat qiyoslovidan o'tkazish muddati tugaganligi sababli yechib olish Yetkazib beruvchi vakillari ishtirokida davlat qiyoslovidan o'tkazish muddati tugashidan kamida bir kun avval amalga oshiriladi.

3.18. Hisoblash priborini sozligini monitoring qilish uchun yechib olish Yetkazib beruvchi vakillari talabi bilan Iste'molchi ishtirokida amalga oshiriladi.

3.19. Shartnomaning 3.16-bandida qayd etilgan holatlarda yechib olingan hisoblash priborini o'rnatish uchun Iste'molchi sertifikatda ko'rsatilgan kundan boshlab ikki kun ichida buyurtma berishi lozim.

3.20. Shartnomaning 3.16-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yechib olingan hisoblash priborini o'rnatish Iste'molchining buyurtmasiga ko'ra ikki kun ichida Yetkazib beruvchining vakillari tomonidan amalga oshiriladi va tamg'alanadi.

3.21. Shartnomaning 3.18-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha yechib olingan hisoblash pribori belgilangan talablarga muvofiq bo'lsa, monitoring tugaganidan so'ng kechiktirmasdan, darhol Yetkazib beruvchining vakillari tomonidan Iste'molchi ishtirokida o'rnatiladi va tamg'alanadi.

Hisoblash pribori belgilangan talablarga muvofiq emasligi aniqlangan taqdirda, mulkdor nomuvofiqliklarni bartaraf etishni ta'minlashi shart, shundan so'ng 3.19 va 3.20-bandlarga muvofiq o'rnatilishi amalga oshiriladi.

3.22. Hisoblash priborini monitoring qilish yoki tekshiruv natijalaridan norozi bo'lgan Iste'molchi, belgilangan tartibda yuqori turuvchi organ yoki sudga murojaat qilishi mumkin.

3.23. Shartnomaning har ikki tomoni belgilangan qonunchilikka muvofiq, Yetkazib beruvchining vakolatli xodimiga tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda sutkaning istalgan vaqtida hisoblash priborlarini moneliksiz ko'zdan kechirish uchun kirish imkoniyatini ta'minlashi shart.

3.24. Yetkazib beruvchining vakolatli xodimini hisoblash priborlariga qo'ymaslik holati dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi. Iste'molchi mazkur dalolatnoma bilan tanishishi lozim. Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etgan holatda, dalolatnomada bu haqda qayd etiladi. Iste'molchi dalolatnomani imzolashni rad etish sababini bayon qilish huquqiga ega, bu haqida dalolatnomaga qayd etiladi.

Dalolatnomaga imzo qo'yishni rad etish Iste'molchini gaz tarmog'idan uzib qo'yish uchun asos bo'ladi va bu haqida ogohlantirilishi shart.

#### **IV. YETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH**

4.1. Iste'molchi ushbu shartnoma asosida yetkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar vakolatli organ tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Yetkazib beruvchi hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 70 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish hohishini bildirgan Iste'molchi hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib yetkazib berilgan gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Yetkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda Iste'molchi hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Yetkazib beruvchining hisob raqamiga gaz yetkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz yetkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov summasi o'tkazilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz yetkazib berish amalga oshirilmaydi.

4.6. Iste'molchi tomonidan olingan gaz uchun uzil-kesil hisob-kitob qilish hisob-kitob oyidan keyingi oyning 10-kunigacha amalga oshiriladi.

4.7. Gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan gaz yetkazib berishga shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.8. Iste'molchi tomonidan gaz yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada hisob-kitob oyi davomida belgilanganidan ko'p hajmda va Yetkazib beruvchi bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan gaz qiymatiga nisbatan 1,4 koeffitsiyent bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, gazning hisobini yuritilishida iste'molchi aybdorligi asoslantirilib kamchiliklari aniqlanganda, iste'mol qilingan gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob-uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha qayta hisob-kitob qilingan taqdirda, iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan gaz qiymatiga nisbatan 1,4 koeffitsiyent bilan oshirilgan to'lov undirilmaydi.

Navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan gaz hajmlari bo'yicha ushbu shartnoma o'zgartirilishidan oldin Iste'molchi Yetkazib beruvchiga bu haqida o'n kundan kechikmay xabar bergan taqdirda, bunday holatlar ortiqcha olingan miqdor deb hisoblanmaydi.

4.9. Gaz uchun iste'molchining to'lov muddati o'tgan qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari iste'molchini xabardor qilgan holda, to'lov muddati o'tgan qarzni to'lashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.10. Yetkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitob haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida Gazni yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi.

Dalolatnomani rasmiylashtirishda quyidagilar inobatga olinadi:

a) gaz hisoblash pribori ko'rsatkichlari, avtomatik tarzda to'g'rilanadigan gazni hisoblash priboridan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) iste'molchi gaz tarmoqlari va GTShdagi texnologik yo'qotishlarning hisoblangan hajmi ko'rsatilgan holda rasmiylashtirilgan dalolatnoma.

4.11. Ko'rsatkichlar olinganidan so'ng keyingi oyning 5-kuniga qadar Yetkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi va schet-faktura rasmiylashtiriladi.

4.12. Iste'molchi oyning 7 kundan kechiktirmasdan Yetkazib beruvchidan hisob-kitob oyi uchun gaz yetkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va schet-fakturani qabul qilib oladi va imzolaydi hamda bir nusxasini Yetkazib beruvchiga jo'natadi.

4.13. Gazni yetkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Yetkazib berilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'risida dalolatnomaning bir nusxasini taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.15. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgargan holatda, Yetkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgarganida, mazkur Shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi.

Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kundan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

Foydalanilgan gaz uchun to'lov summasi gaz iste'molini hisobga olish priborlaridan ko'rsatkichlarni olish vaqtida amal qilingan tariflar asosida hisoblanadi. Tariflar o'zgarganda, avval hisoblangan summa bo'yicha tariflar o'zgarishiga qadar to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydigan qarzdorlik vujudga kelgan deb tan olinadi.

## **V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK**

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan 3.5-bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Yetkazib beruvchi va Iste'molchi vakillari tomonidan imzolanadigan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan, Yetkazib beruvchi vakilining so'nggi ko'zdan kechirish kundan boshlab, foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undiriladi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi Iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## **VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA ULANISH TARTIBI**

6.1. Iste'molchi gaz tarmoqlaridan quyidagi holatlarda uzib qo'yiladi:

– foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

– Yetkazib beruvchining qonunchilikda belgilangan ko'rsatmalari bajarilmaganda, shu jumladan uning vakillari hisoblash priborlaridan ko'rsatkichni olishiga qo'yilmaganda;

– hisoblash priborlariga qasddan zarar yetkazilganda, pribor ko‘rsatgichlarini o‘zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to‘sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan va boshqa Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzish holatlarida;

– gazni talon-taroj qilish, gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish holatlari aniqlanganda.

–TGNHAT nosoz yoki mavjud bo‘lmasa.

6.2. Yetkazib beruvchi yetkazib berilgan gaz uchun qarzdor bo‘lgan Iste‘molchiga qarzni besh kun ichida uzishi lozimligi haqida xabardor qiladi.

Yetkazib beruvchi Iste‘molchini xabardor qilgan vaqtdan boshlab besh kun muddat o‘tgandan so‘ng, Iste‘molchini debitor qarzdorlik uchun gaz tarmoqlaridan uzib qo‘yish va ularni qaytadan ulashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

Qayta ulanishda Iste‘molchidan to‘lov kuni amalda bo‘lgan bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida haq undiriladi. Bunda, TGNHATga ulangan hamda hisobga olish pribori avtomatik tarzda o‘chirib-yoqish qurilmasiga ega bo‘lgan iste‘molchilarni gaz tarmoqlariga qayta ulanishi uchun haq undirilmaydi.

## VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Yetkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o‘ziga qarashli bo‘lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o‘z hisobidan ta‘mirlash-tiklashga;

- o‘z gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko‘zdan kechirishga;

- gaz yetkazib berish qisqartirish yoki to‘xtatish to‘g‘risida ushbu shartnomaning 2.4 va 2.5-bandlari talablariga ko‘ra Iste‘molchini xabardor qilishga;

- o‘zboshimchalik bilan ulanish holatlari aniqlanganda, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinganligi to‘g‘risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilishga;

- iste‘molchiga gaz yetkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gaz yetkazib berishga;

- vakolatli davlat organlarining majburiy ko‘rsatmalarini bajarishga;

- qonunchilik hujjatlarida belgilangan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan iste‘molchilarni ob-havo sovib ketishi davrida tabiiy gaz bilan uzluksiz ta‘minlash maqsadida ushbu shartnomaning 2.5-bandi talablaridan kelib chiqqan holda tabiiy gazni qisqartirish yoki to‘xtatib qo‘yishga.

Yetkazib beruvchi Qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

7.2. Yetkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- iste‘molchini belgilangan tartibda ushbu shartnomaning 2.4 va 2.5-bandlari talablariga muvofiq xabardor qilgan holda, gazni yetkazib berishni qisqartirish yoki to‘xtatish;

- o‘zboshimchalik bilan ulanish holatlari aniqlanganda, ularni gaz tarmog‘idan uzib qo‘yish;

- iste‘molchilardan Tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va gazni yetkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishini talab qilish;

- shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'rish zarurati yuzaga kelganda, iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni yetkazib berishni to'xtatish yoki cheklash.

7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

- gazdan oqilona va samarali foydalanishga;
- har oyning 5-sanasigacha Yetkazib beruvchiga uning vakili bilan birga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etishga;
- tasarrufidagi gaz quvurlari va uskunalari texnik jihatdan soz holatda saqlashga;
- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasi vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilishga;
- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarni muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqishga;
- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlanmagan, gazlashtirish loyihasiga (keyingi o'rinlarda LTH deb ataladi) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasi ulanishiga yo'l qo'ymaslikka;

- gaz ta'minoti tashkiloti vakillarining (tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasi kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini ta'minlashga;

- gazdan foydalanish uskunasi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etishga;

- gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslikka, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslikka va o'rnatilgan tamg'alarining butunligini ta'minlashga;

- gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, 24 soat ichida gaz ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilishga;

7.4. Iste'molchi Yetkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- yetkazib berilgan gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlariga norozi bo'lgan taqdirda, Yetkazib beruvchining gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda va yetkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

- shartnoma bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz hajmi uchun to'langan summani qaytarish;

- shartnomani qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

- gazni yetkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish;

- gaz yetkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.

Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

## VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Yetkazib beruvchi Iste'molchiga shartnomaga asosan gaz yetkazib bermagan yoki to'liq yetkazib bermaganligi oqibatida yetkazilgan aniq zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

8.2. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi natijasida Iste'molchiga moddiy zarar yetkazilganda, Iste'molchi Yetkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan belgilangan tartibda jarima qo'llash bo'yicha sudga murojaat etish huquqiga ega.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz yetkazib berilgan taqdirda, Yetkazib beruvchiga nisbatan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartib asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-major holatlar;

b) gaz tarmoqlarida avariya holatlari;

v) qish davrida vaqtincha gaz yetkazib berishni belgilangan tartibda cheklash joriy etilganda (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarori, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz yetkazib berish tarmog'idan uzib qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari).

8.4. Yetkazib berilgan gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Yetkazib beruvchidan yetkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Yetkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz yetkazib berilganda, Yetkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq yetkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda yetkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

## **IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV**

9. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi.

Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Yetkazib beruvchining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Yetkazib beruvchining hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korruptsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy rioya etish majburiyatini oladi.

## **X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qonunchilik talablariga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda vakolatli organlarga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.2. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

## **XI. FORS-MAJOR HOLATLAR**

11.1. Tomonlar ularning xohish va harakatlariga bog'liq bo'lmagan tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar sababli ushbu sharoitlarda qaytarib bo'lmaydigan va oldindan bilib bo'lmaydigan favqulodda holatlarni o'z ichiga olgan yengib bo'lmay kuch (fors-major) oqibatida o'z zimmasiga olingan majburiyatlarni bajara olmasa, tomonlardan hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmagani uchun javob bermaydi.

11.2. Agar ko'rsatilgan fors-major holatlari majburiyatlarning shartnomada belgilangan muddatlarda bajarilishiga ta'sir qilsa, u holda ushbu muddatlar fors-major holatlarining amal qilish vaqtiga, ammo tabiiy ta'minoti shartnomasining amal qilish muddatidan ko'p bo'lmagan vaqtga uzaytiriladi.

## **XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI**

12.1. Ushbu shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilgan va tomonlar o'rtasida imzolangan bo'lishi lozim.

12.2. Ushbu shartnoma 20\_\_ yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuziladi. Shartnomaning amal qilish muddati tugashi munosabati bilan tomonlardan hech biri uni bekor qilish haqida murojaat qilmagan taqdirda, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

12.3. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

Tomonlar o'rtasidagi o'zaro kelishuvga asosan hal etilmagan nizolar javobgarining joylashgan joyidagi Iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

## **XIII. SHARTNOMANING O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI**

13.1 Fuqarolik kodeksida, boshqa qonunlarda yoki mazkur shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining talabi bilan shartnoma sud tomonidan faqat quyidagi hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin:

- a) ikkinchi taraf shartnomani jiddiy ravishda buzsa;
- b) Fuqarolik Kodeksi, boshqa qonunlar va shartnomada nazarda tutilgan o'zga hollarda.

Taraflardan birining shartnomani buzishi ikkinchi tarafga u shartnoma tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi shartnomani jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani bajarishdan to'la yoki qisman bosh tortib, qonun yohud taraflarning kelishuvida bunga yo'l qo'yilsa, shartnoma tegishli besh bekor qilingan yoki o'zgartirilgan hisoblanadi.

13.2 Fuqarolik Kodeksining 455, 476-moddalarida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra tabiiy gaz yetkazib berish Yetkazib beruvchi bir tomonlama bekor qilishga xaqli.




**Kelishilgan:**

**Yetkazib beruvchi**

**Iste'molchi**

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_